



## PROBLEMS AND SOLUTIONS IN BRINGING MINORS OR INCAPACITATED PERSONS TO ADMINISTRATIVE LIABILITY FOR EVASION OF FINANCIAL SUPPORT

*Laziz Mamatkulov*

*Student*

*Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan  
Uzbekistan, Tashkent*

*E-mail: [mamatkulovlaziz77@gmail.com](mailto:mamatkulovlaziz77@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** minor, financial support, incompetent, alimony, evasion, code, refusal, intentional, liability, family, administrative.

**Received:** 13.01.24

**Accepted:** 15.01.25

**Published:** 17.01.25

**Abstract:** In this article, the author sheds light on the problems of holding minors or incapacitated persons administratively liable for evasion of financial support, gaps in the legislation, and their elimination.

## VOYAGA YETMAGAN YOKI MEHNATGA LAYOQATSIZ SHAXSLARNI MODDIY TA'MINLASHDAN BO'YIN TOVLAGANLIK UCHUN MA'MURIY JAVOBGARLIKKA TORTISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

*Laziz Mamatkulov*

*tinglovchi*

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
O'zbekiston, Toshkent*

*E-mail: [mamatkulovlaziz77@gmail.com](mailto:mamatkulovlaziz77@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** voyaga yetmagan, moddiy ta'minlash, layoqatsiz, aliment, bo'yin tovlash, kodeks, bosh tortish, qasddan, javobgarlik, oila, ma'muriy.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortishdagi muammolar, qonunchilikdagi bo'shliqlar va ularni bartaraf etish masalasiga oydinlik kiritgan.

**ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПРИ ПРИВЛЕЧЕНИИ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ  
ОТВЕТСТВЕННОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ ИЛИ НЕТРУДОСПОСОБНЫХ  
ЛИЦ ЗА УКЛОНЕНИЕ ОТ МАТЕРИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ**

**Лазиз Маматкулов**

*Слушатель*

*Академии правоохранительных органов Республики Узбекистан*

*Узбекистан, Ташкент*

*E-mail: [mamatkulovlaziz77@gmail.com](mailto:mamatkulovlaziz77@gmail.com)*

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые**

несовершеннолетний, материальное обеспечение, недееспособный, алименты, уклонение, кодекс, уклонение, умышленная, ответственность, семья, административная.

**слова:**

**Аннотация:** В этой статье автор разъяснил проблемы, связанные с привлечением несовершеннолетних или нетрудоспособных к административной ответственности за уклонение от материального обеспечения, пробелы в законодательстве и их устранение.

Har bir jamiyatning asosiy vazifalaridan biri bolalar, keksalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 77-moddasida Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur majbur ekanliklari belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, 80-moddada voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekanligi qayd etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksida voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minalash majburiyati batafsil belgilangan.

Mazkur majburiyatlarni bajarmaslik, ya’ni voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minalashdan bo‘yin tovlash O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy Javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi 474-moddasiga muvofiq ma’muriy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Biroq, amaliyotda ushbu moddani qo‘llashda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda.

Xususan, “Bo‘yin tovlash” tushunchasining noaniqligi, MJtK 474-moddasida “bo‘yin tovlash” tushunchasi ishlatilgan, ammo uning aniq ta’rifi berilmagan.

Bu esa huquqni qo‘llovchi organlar tomonidan ushbu normani turlicha talqin qilishga olib kelishi mumkin. Masalan, aliment to‘lovchining vaqtincha ishsiz bo‘lib qolishi yoki moddiy qiyinchiliklarga duch kelishini bo‘yin tovash deb hisoblash mumkinmi?

Bu borada, professor M.H. Rustambayevning fikricha, “bo‘yin tovash” tushunchasi aliment to‘lovchining o‘z majburiyatlarini bajarishdan qasddan bosh tortishini anglatadi.

Bunda, ushbu shaxsning moddiy ta'minlash uchun yetarli mablag'ga ega bo'lishi, lekin uni to'lashdan bosh tortishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq, bunday yondashuv ham yetarlicha aniq emas, chunki "qasddan" va "etarli mablag'" tushunchalarini aniqlash qiyinchilik tug'diradi.

Yana bir muammolardan biri, aliment miqdorini aniqlashdagi murakkabliklar hisoblanadi.

Jumladan, Oila Kodeksining 99-moddasiga muvofiq, sud aliment miqdorini aliment to'lovchining oylik ish haqi va (yoki) boshqa daromadining ulushi bo'yicha belgilashi mumkin. Biroq, amaliyotda aliment to'lovchining daromadini aniqlash qiyin bo'lib, ayrim hollarda ular o'z daromadlarini yashirishga harakat qilishadi. Bu esa aliment miqdorini adolatli belgilashga to'sqinlik qiladi.

Shuningdek, aliment undirish to'g'risidagi sud qarorlarining ijrosi Majburiy ijro byurosi (MIB) tomonidan amalga oshiriladi.

Biroq, MIBning ish hajmi yuqoriligi va xodimlar yetishmasligi sababli, ijro hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijro etilishida muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarning huquqlari buzilishiga olib keladi.

Yana bir muammolardan biri, moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlagan shaxslar uchun ma'muriy javobgarlikning samarasiz bo'lib qolmoqda.

MJtK 474-moddasiga ko'ra, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganlik uchun o'n besh sutka muddatga ma'muriy qamoqqa olishga yoki bir yuz yigirma soatgacha haq to'lanadigan jamoat ishlariga majburiy ravishda jalg' etishga yoxud Kodeksga muvofiq ma'muriy jazolarning mazkur turlari qo'llanilishi mumkin bo'limgan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima jazosi belgilangan.

Biroq, amaliyotda ushbu jazo choralarining samaradorligi past bo'lib, qarzdorning bo'yin tovplash holatlarining davom etishiga sabab bo'lmoqda.

Shuningdek, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovplash holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati muhim ahamiyatga ega. Biroq, mahalla fuqarolar yig'inlari va boshqa jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatni yetarli darajada emas.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolarni bartaraf etish va voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarning huquqlarini samarali himoya qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Qonunchilikni takomillashtirish:

- MJtK 474-moddasidagi “bo‘yin tovlash” tushunchasiga aniq ta’rif berish lozim. Bunda, aliment to‘lovchining qasddan va uzrli sabablersiz moddiy ta’minalashdan bosh tortishi, shuningdek, uning yetarli daromadga ega bo‘lishi inobatga olinishi lozim;
- Aliment miqdorini aniqlash tartibini takomillashtirishda aliment to‘lovchining barcha daromadlarini, shu jumladan, norasmiy daromadlarini ham hisobga olish mexanizmini joriy etish, shuningdek, aliment miqdorini inflyatsiya darajasiga mos ravishda indeksatsiya qilish tartibini belgilash zarur;
- Aliment to‘lovchilarning mol - mulkini xatlash va sotish orqali aliment qarzdorligini undirish tartibini soddalashtirish;
- Aliment to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish.

Ijro intizomini kuchaytirish:

- MIBning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xodimlar sonini oshirish, bu ijro hujjatlarining o‘z vaqtida va to‘liq ijro etilishini ta’minalashga xizmat qiladi.
- Ijro ishi yuritishning elektron tizimini takomillashtirish. Bu ijro hujjatlarining harakatini onlayn rejimda kuzatib borish va ijro jarayonining shaffofligini ta’minalash imkonini beradi.
- Aliment to‘lovchilarning boshqa hududlarga ko‘chib ketishi holatlarini nazorat qilish va aliment undirishni ta’minalash imkonini beruvchi yagona platforma ishlab chiqish;

Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish:

- Mahalla fuqarolar yig‘inlari va boshqa jamoat tashkilotlarining voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minalashdan bo‘yin tovlash holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurashishdagi rolini oshirish. Bunda, ularga aliment to‘lashdan bo‘yin tovlayotgan shaxslar to‘g‘risida tegishli organlarga xabar berish vakolatini berish maqsadga muvofiq.
- Ommaviy axborot vositalarida aliment to‘lash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytirish. Bunda, aliment to‘lashdan bo‘yin tovlashning salbiy oqibatlari, xususan, bolalarning huquqlari buzilishi keng yoritilishi lozim.
- Aholining huquqiy savodxonligini oshirish. Fuqarolarga aliment undirish tartibi va aliment to‘lashdan bo‘yin tovlashning huquqiy oqibatlari to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish zarur.

Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minalashdan bo‘yin tovlash ijtimoiyadolat printsiplariga zid bo‘lib, ularning huquq va manfaatlari jiddiy buzilishiga olib keladi.

Shu bois, ushbu illatga qarshi kurashish davlat va jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan muammo va taklif etilgan yechimlar voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlaganlik uchun ma'muriy javobgarlikka tortish mexanizmini takomillashtirishga, aliment undirish samaradorligini oshirishga va pirovardida bolalar, keksalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

### IQTIBOSLAR / СНОСКИ / REFERENCES

1. Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.  
<https://lex.uz/docs/6445145>
2. Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 07.02.2024 й., 03/24/905/0106-сон.  
<https://lex.uz/docs/104720>
3. Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.11.2024 й., 03/24/1004/0948-сон.  
<https://lex.uz/docs/97664>
4. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикасининг Оила ҳуқуки. Дарслик. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. – Б. 254.